

**KAPRON TOLA TARKIBLI ADRAS GAZLAMALARINING SIFAT
KO'RSATKICHLARI TAXLILI**

PhD U.B.Rajapova,

M8-23 guruh talabasi G.A.Isakova,

8-22 guruh talabalari

F.T.Xolnazarova, X.Sh.Farxiddinova

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

**KAPRON TOLA TARKIBLI ADRAS GAZLAMALARINING SIFAT
KO'RSATKICHLARI TAXLILI**

В статье изучены физико-механические показатели национальной ткани Адрас.

In the article studies the physical and mechanical characteristics of the national fabric Adras.




Bugungi kunda Respublikamizda tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi toboro oshib bormoqda. Tayyor to'qimachilik mahsulotlarning eksport hajmini oshirish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunda matolar assortimentini kengaytirish, ayniqsa milliy matolarning yangi turlarini yaratish muhimdir. Nafis va mumtoz milliy matolarimizga chet davlatlarda ham qiziqish kundan-kunga ortmoqda. Bundan tashqari milliy abrli gazlamalarning ishlatilish ko'lamini yanada ortmoqda [1]. Abrli gazlamalarni nafaqat ko'ylakbop mato sifatida, balki mehmonxona va restoranlarning chiroyli bezaklarida, yon daftarcha muqovalarida, ayollarning har xil turdagi sumkachalarida va hatto poyafzallarda ham keng miqyosda qo'llanilib, ularning ko'rkiga yanada ko'rk qo'shmoqda. Ayniqsa, Respublikamizning mustaqillik yillaridan keyin ishlab chiqarila boshlagan Adras gazlamalari bugungi kunda abrli gazlamalar ichida eng xaridorgirlaridan hisoblanadi. Asosiy boyligimiz bo'lgan mahalliy to'qimachilik tolalarini qayta

ishlash hajmini oshirish, ularga badiiy bezak berish usullarini takomillashtirish va kimyoviy tolalar aralashtirib yangi assortimentdagi gazlamalar yaratish yo‘llarini izlab topish muhim hisoblanadi. Gazlama ishlab chiqarishda ishlatiladigan tanda va arqoq iplarining turi ko‘p bo‘lib, ularni ishlatish ko‘lami avvalo, ishlab chiqarilgan matoning foydalanilish maqsadi, xossalari, gazlamaga qo‘yiladigan estetik, texnologik va iste‘mol talablari kabi ko‘rsatkichlar, unga bezak berish usuli va boshqalarga bog‘liq [2]. Tanda va arqoq iplarining turi va tarkibi nafaqat ulardan ishlab chiqarilgan gazlamalarning fizik-mexanik xossalarini, shuningdek, matoning ko‘rimligini aniqlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Adras gazlamalarining xususiyatlarini yanada yaxshilash maqsadida unga yangi turdagi iplarni qo‘llash bo‘yicha bir nechta tadqiqot ishlari olib borildi. Ilmiy tadqiqot uchun milliy gazlamalar ishlab chiqaruvchi korxonada 100 % li bambuk Adras gazlamalari hamda tandasi bambuk va arqog‘i kapron tolasidan bo‘lgan namuna mato to‘qib olindi. Olingan namuna matolarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari sinovdan o‘tkizildi va natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

№	Namuna	10smdagi iplar soni	Uzilish kuchi, N	Ishqalanishga chidamlilik, davr (sikl)	Havo o‘tkazuvchanlik, $\text{sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$	Yuza zichlik, g/m^2
1	Tanda (bambuk)	260	397	19600	83,5	170,7
	Arqoq (bambuk)	160	298			
2	Tanda (bambuk)	260	406	21200	57,43	168,6
	Arqoq (kapron)	160	428			

Jadval natijalari bo‘yicha quyidagi gistogrammalar qurildi:



Tadqiqot natijalaridan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, Adras matosi

arqog'iga kapron iplari ishlatilganda uning havo o'tkazuvchanligi kamaygan, lekin uning arqoq ipi bo'yicha mustahkamligi va ishqalanishga chidamliligi oshgan.



Bugungi kunda mehmonxona va restoranlarning bezaklariga, divan (o'rindiq)lariga maxsus yostiqlar ishlatiladi. Bundan tashqari yon daftarcha va kitob muqovalariga Adras gazlamalari ishlatilmoqda. Ushbu maqsadlarda 2-variant namuna Adras matolarini ishlatish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.B.Rajapova, M.Doniyorova, M.Yuldasheva "Study of the Structure and Filling Parameters of Uzbek National Fabrics", Scopus & Web of Science indexed "Problems in the textile and light industry in the context of integration of science and industry and ways to solve them (PTLICISPWS-2)", Namangan, 3-4 May, 2023.

2. U.B.Rajapova "An analysis of structure of different filling parameters Adras fabrics", International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (*Ijarset*) Vol. 6, Issue 1, January 2019.